O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Г.Н.Давлятова
Харизматический образ оратора в публичной речи ... 110
Z.V.Alimova
Navoiyning “Saddi iskandariy” dostonidagi ba’zi antonim so‘zlar xususida ... 114
A.A.Qosimov
Mythopoeic onomastics: a taxonomic paradigm for mythonymic construction in C.S.Lewis's literary corpus ... 119
S.M.Muminov, D.R.Abdumalikova
O‘zbek va ingliz muloqot xulqida disputning lingvokulturologik asoslari ... 127
Sh.S.Mo‘minov, N.M.Rahmatova
Boshqaruvga oid qarashlarning zamonlararo takomili ... 131
M.O.Obilov
Akademik diskursda funksional va pragmatik yondashuvlar: nazariy-metodologik asoslar ... 134
A.O‘.Abdullayev
Kolorativ leksikada ramzlar talqini ... 138
Б.Мамедова
Концептуальные основы языковой идентичности и отношений личности и общества в мышлении XX века ... 144

TILSHUNOSLIK

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a100

UO'K: 811.512.133.43

NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDAGI BA'ZI ANTONIM SO'ZLAR XUSUSIDA

О НЕКОТОРЫХ АНТОНИМАХ В ПОЭМЕ НАВОИ «САДДИ ИСКАНДАРИ

ON SOME ANTONYMS FOUND IN ALISHER NAVOI'S EPIC "SADDI ISKANDARI"

Alimova Zarifa Vaxobovna

Farg'ona davlat unversiteti tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llangan qarama-qarshi ma'noli so'zlar xususida fikr yuritilgan. Asarda uchragan arabiy, forsiy va turkiy zid ma'noli so'zlarning leksik ma'nolari, ularning izohli lug'atlardagi ma'nolariga asoslanganligi yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada otlarga nisbiy sifat qo'shimchasi qo'shilishi orqali hosil qilingan qarama-qarshi ma'noli so'zlar, izofiy birikma hosil qilgan zid ma'noli so'zlar, zid ma'noli so'zlarning turli so'z turkumlariga oid ekanligi, aniq ma'noni ifodalovchi antonimlar, mavhum ma'noni ifodalovchi zid ma'noli so'zlar xususida ham so'z boradi. Maqolada keltirilgan forsiy, arabiy, turkiy antonimlarning leksik va semantik xususiyatlari izohlangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются антонимы, используемые в эпической поэме «Садди Искандарий» великого мыслителя и султана слова Алишера Навои. В работе представлены научные взгляды на лексические значения арабских, персидских и тюркских слов с противоречивым значением, основанные на их значениях в толковых словарях. В статье также рассматриваются слова с противоположными значениями, образованные путем добавления относительного суффикса прилагательного к существительным, слова с противоположными значениями, образованные сложными словами, и различные классы слов с противоположными значениями. Также обсуждается существование антонимов, которые выражают определенное значение, а также слова с противоположным значением, которые выражают абстрактный смысл. В статье объясняются лексические и семантические свойства представленных персидских, арабских и узбекских антонимов.

Abstract

This article analyzes the antonyms used in the epic poem Saddi Iskandariy by the great thinker and "Sultan of Words," Alisher Navoi. It presents the lexical meanings of Arabic, Persian, and Turkic antonyms found in the work, based on their interpretations in explanatory dictionaries. The study also examines antonyms formed by adding relative adjective suffixes to nouns, antonyms appearing as izafet constructions, antonyms belonging to different parts of speech, and those expressing both concrete and abstract meanings. The lexical and semantic characteristics of the Arabic, Persian, and Turkic antonyms discussed in the poem are explored in detail.

Kalit so'zlar: *antonim haqida tushuncha, zid ma'noli so'zlar, arabiy antonimlar, forsiy antonimlar, nisbiy sifat, izofiy birikma.*

Ключевые слова: *понятие антонима, слова с противоположным значением, арабские антонимы, персидские антонимы, относительное прилагательное, изафетное сочетание.*

Key words: *The concept of antonym, words with opposite meanings, Arabic antonyms, Persian antonyms, relative adjective, izafet construction.*

KIRISH

Ma'lumki, Alisher Navoiy ijodi serma'no hikmatlar bilan yo'g'rilgan ma'rifat xazinasidir. Hikmatga berilgan ta'riflarda uning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati yaqqol ko'rinadi. Manbalarda keltirilishicha, Navoiy besh dostondan iborat "Xamsa"ni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o'z „Xamsa"sini yozishni boshlab, 1485-yilning boshida tugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba „Xamsa" yaratiladi. Olim-u fuzalo — barcha bu hodisani zo'r olqish bilan kutib oldilar. Bu noyob "Xamsa"dan munosib joy olgan "Saddi Iskandariy" dostonining o'rni o'zgacha. Bu asar har bir kitobxonni uzoq tarix zarvaraqlarining purma'no hikmatlari sari yetaklaydi.

TILSHUNOSLIK

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni shoirning turkiy tilda yozilgan noyob durdonalaridan biridir. Bu doston haqida xorijiy olimlar A.Vamberi, J.Malokolin, F.Richard, L.Vari, Y.Ekman, E.Partele; rus tadqiqotchilari I.Krachkovskiy, V.Bartold, E.Bertels, Konrad, B.Jirmunskiy, A.Yakubovskiy, A.Semyonov; turk olimlari F.Ko'prulu, A.S.Levend, K. Eraslon; ozar olimlari H. Arasli, G. Aliyev; o'zbek olimlari Fitrat, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, T.Jalolov, Sodir Erkinov, S.Nazrullaeva, A.Abdug'afurov, M.Hakimov, S.Hasanov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari ma'lum.

O'zbekiston xalq shoiri E.Vohidov shunday yozadi: "Alisher Navoiy turkiy tildagi yuzta harakat nomi, ya'ni fe'llarni sanab, fors tilida ularning muqobili yo'q ekanini aytganlar va turkiy tilimizning boyligi, qudratini namoyish etganlar" [5,13]. Navoiy "Majolis-un nafois" asarida ta'kidlaganidek, XI-XV asrlarda yashagan shoir va adiblarning ko'pchiligi fors va arab tillarida ijod qilganlar. Turkiy tilda ijod qilgan shoirlar juda oz edi. Ayrim o'zbek shoirlari, Navoiyning ta'kidlashicha, o'zbek tilining boyligi va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e'tibor berardi. Shoir 1499-yilda yozgan "Muhokamat-ul lug'atayn" nomli asarida o'zi ham dastlabki she'rlarini fors tilida yozishdan boshlaganini yozadi. Lekin keyinchalik turkiy til haqida fikr yuritish ehtiyoji paydo bo'lgach, bu tilning bitmas-tuganmas xazinalarga boy til ekanini payqagan.

Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni —„Badoye ul-bidoya" („Badiiylik ibtidosi")ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. 1485–1486-yillarda ikkinchi devon — „Navodir un-nihoya" („Nihoyasiz nodirliklar") maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481–1482-yillarda „Vaqfiya" asarini yozadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur maqola "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim zid ma'noli so'zlarning leksik-semantik, sintaktik xususiyatlarini qratilgan. Taniqli navoiyshunos olim O.Sharafiddinovning izoh berishicha, "Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni faqat o'zbek tilida yozilgan bo'lishi jihatidan emas, balki ilgari surgan masalalari, ularning chuqurligi, boyligi va tasvirlangan voqealari jihatidan ham boshqa dostonlardan ajralib turadi" [4,177].

Manbalarda qayd etilishicha, antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanilib ma'no kengaytiradi yoki ma'no ifodalaydi: tunu kun (har doim). Ko'p ma'noli so'z o'zining har bir ma'nosi bilan ayrim so'zlarga sinonim bo'lishi mumkin: *xafa* so'zi bir o'rinda *xursand* so'ziga antonim bo'ladi, yoki *qattiq yer — yumshoq yer, baxil (xasis) odam — saxiy odam.*

Shu o'rinda "Saddi Iskandariy"dagi ayrim antonimlarga misollar keltirib o'tamiz.

Zabardastlar zerdast*ing sening,*

Biyikdar kelib borcha pasting sening (Saddi Iskandariy, 1-bet).

Tabdili: *Shu tufayli dunyoning barcha zabardast kishilari sening oldingda tobedurlar, barcha ulug'lar esa sening qarshingda xokisordurlar* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 3-bet).

Mazkur misolda *zabardastlar* leksemasi ega bo'lib kelgan. Egadan keyin kelgan so'z *zerdast* bo'lib, qo'l ostida, qo'l tagida ma'nosini ifodalaydi. Tabdildan ko'rinadiki, *zerdast* so'zi *tobe bo'lmoq* deyilgan. Agar so'zga e'tibor qaratilsa, zer – tagida, dast – qo'l, ya'ni "qo'l ostida" ma'nosini ifodalaydi. Shuni ta'kidlash joizki, *zabardast* va *zerdast* leksemalari ikki so'zning izofa orqali birikishidan hosil qilingan. Izofa sozi arabcha bo'lib, "qo'shish", "orttirish" demakdir. Odatda izofa aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o'rtasidagi bog'lanishdir. Fors tilida izofiy bog'lanish urg'usiz –i, -yi (-e, -ye) tovushi orqali ifodalanadi. Ko'plab izofiy bog'lanishli birikmalar o'zbek tiliga o'zlashganda, ana shu –i, -yi tovushi tushib qolib, ikki so'zdan iborat birikma bir so'zga aylanib qoladi. Yuqorida keltirilgan *zabardast* leksemasi *zabar* (ustida) va *dast* (qo'l) so'zlari orqali hosil bo'gan *zabaridast* shaklidagi izofiy birikma bo 'lib, *"qo'lning ustida"* deya tarjima qilinadi. Shuningdek, *zerdast* leksemasi ham "zeridast" ko'rinishida bo'lib, *"qo'lning ostida"* degan ma'noni ifodalaydi. O'zbek tiliga o'zlashganda "zerdast"ga aylanib qolgan. Matn tarkibida izofa belgisining tushib qolishi "faki izofat" deyiladi. Bu haqda M.Amonov ham shunday yozadi: "Zeri dast" (qo'l

ostidagi) so‘z birikmasidan *zerdast* hosil bo‘lgan. Mazkur izofiy irikmada izofa saqlangan, qo‘shma so‘zda esa saqlanmagan. Ammo bundan qat’iy nazar, birikma va qo‘shma so‘z bir xil ma’noni anglatadi. Birinchi birikma tilshunoslikda *izofati milk (bilkasr),* ikkinchi birikma *faki izofat* deyiladi” [2, 221]. So‘z sultoni Navoiy *zabardast* (*qo‘l ustida*) so‘zining antonimi sifatida *zerdast* (qo‘l ostida)ni mohirlik bilan qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz.

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan izofali birliklar orasida izofa ko‘satkichi tushib qolgan leksemalar ko‘p uchraydi. Masalan, *boloxona* (*boloyi xona* – uyning tepasi, ya’ni tepadagi uy) so‘ziga Sh.Rahmatullayev quyidagi izohni keltiradi: “Bu tijikch ot “tepedagi” ma’nosini anglatuvchi “bolo” sifati bilan “uy” ma’nosini anglatadigan “xona” otidan tuzilgan bo‘lib, asli bir qavatli binoning ustiga qurilib, o‘tin-cho‘p, ortiqcha narsalar saqlanadigan ikkinchi qavat ma’nosini anglatadi”[3,48]. Birgina *dil* semali izofali birikmalarga quyidagilarni keltirish mumkin: *dilpora* (dili pora –pora bo‘lgan qalb), *dilsiyohlik* (dili siyoh- qora qalb), *diltang* (dili tang – tang b’lgan qalb), *dilxasta* (dili xasta – xasta bo‘gan qalb), *dilshikasta* (dili shikasta - singan qalb) [6, 908].

Xudoyo, musallam xudoliq sanga,
Birov ***shah****ki, da’bi* ***gado****liq sanga* (Saddi Iskandariy, 1-bet).

Tabdili: *Ey, Alloh! Sohiblik – Egamlik faqat senga munosibdir. Birovlar shohdurlar. Lekin, baribir, sening oldingda gado yanglig‘durman* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 3-bet).

Mazkur baytda *shah* so‘zining antonimi sifatida *gado* so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, har ikkisi ham forsiy so‘zdir. *Shah* so‘zi baytda kesim vazifasini bajargan. Dostonda *shah* leksemasi *shoh* shaklida ham uchraydi. Dostondan olingan quyidagi to‘rtlikda *shoh* va *shah* leksemalari misralar uyg‘unligini yaratganiga guvoh bo‘lish mumkin:

Bu ishtin falak topqach ogohliq,
Sanga shahlar uzra berib ***shoh****liq.*
Falakka bu baxshish qilurg‘a ne had,
Seni Haq ***shah*** *etmish azal to abad* (Saddi Iskandariy, 13-bet).

Tabdili: *Falak bu ishlardan ogoh bo‘lgach, senga jamiki shohlarga sardorlik qilish vazifasini berdi. Lekin falakning bunday muruvvat ko‘rsatishga qanday haddi sig‘ardi, chunki seni Tengrining o‘zi azal to abad shoh etib yaratgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 16-bet).

Yasab chunki ham ***do‘zaxu*** *ham* ***bihisht****,*
Basharni qilib ***zishtu zebosirisht*** (Saddi Iskandariy, 47-bet).

Tabdili: *Tangri do‘zaxni ham, jannatni ham yaratgan, chunki ko‘plarda go‘zal xulq, yaxshi sifatlar bo‘lishi barobarinda, yomon, badfe’l qiliqlar ham bor* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 50-bet).

Mazkur baytda *do‘zax* so‘zining ziddi sifatida *bihisht* (jannat) kelgan bo‘lib, har ikkisi ham ot turkumiga tegishli forsiy leksemalardir. Baytning ikkinchi misrasidagi *zisht* leksemasining antonimi *zebosirisht* so‘zi orqali ifodalangan b’lib, har ikkisi sifat turkumiga oiddir. Baytdagi *zisht* so‘zi *“xunuk”, zebosirisht* esa *“go‘zal”, “chiroyli”, “suluv”* ma’nolarini ifodalaydi. Asardagi *zebosirisht* leksemasi qo‘shma so‘z hisoblanib, lug‘atlarda uning qo‘shma so‘z shakli emas, balki *zebo* (go‘zal, chiroyli) hamda *sirisht* (xulq, xislat) so‘zlari alohida izohlangan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, dostonda ko‘p o‘rinlarda uchragan *zebo* leksemasi forsiy izofali birikmalarda ham qo‘llanilib, *yarashgan, munosib* kabi ma’nolarni ham ifodalagan:

Alar dag‘i ***zeboyi taxt*** *erdilar,*
Tavonov-u firuzbaxt erdilar (Saddi Iskandariy, 251-bet).

Baytdagi ***zeboyi taxt*** izofiy birikmasi *taxtga yarashgan, shoh bo‘lishga munosib* kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Jafosi aning ***do‘stg‘a*** *yetmagay,*
Qayu do‘st, ***dushmang‘a*** *javr etmagay*
Jafo *o‘trusida* ***vafo*** *aylagay,*
Va gar ***buxl*** *ko‘rsa* ***ato*** *aylagay* (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Tabdili: *…do ‘stlariga jafo qilmagani kabi dushmanlariga ham sitam aytmasligi, sitamgina emas, dushmani jabr qilganda ham unga kina-adovat qilmasligi, jafo o‘rniga vafo-yu, baxillik qiluvchiga saxiylik ko‘rsatmog‘i lozim* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 41-bet).

Yuqorida keltirilgan to‘rtlikda *do‘st* so‘zining antonimi *dushman*, *jafo* so‘zining ziddi *vafo*, *buxl* so‘zining qarama-qarshisi *ato* leksemalari keltirilgan. Mazkur leksemalarning barchasi ot

turkumiga tegishlidir. O'zbek tilining izohli lug'atlarida *do'st, dushman, jafo, vafo* leksemalari o'zlashgan qatlam so'zlari sifatida uchraydi, lekin *buxl, ato* leksemalari uchramaydi. Har ikki so'z ham arabiy bo'lib, *buxl* so'zi *baxillik, xasislik, qurumsoqlik* (ANATIL, I jild, 341-bet) *ato* leksemasi esa *baxshish, in'om, ehson, saxovat* kabi ma'nolarini bildiradi (ANATIL, I jild, 134-bet). Mazkurlardan har ikki leksema bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi leksemalar ekani ma'lum bo'ladi.

Aning birla koni maoniy kutub,

Yo'q ***arz****iy kutub,* ***osmon****iy kutub* (Saddi Iskandariy, 30-bet).

Tabdili: *Ma'no kitoblarining koni, faqat yer kitoblarining emas, osmon kitoblarining ham koni o'sha havo sharofatidandir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 33-bet).

Baytdan ko'rinadiki, *arz* so'zi arabiy bo'lib, *yer* ma'nosini ifodalaydi. Osmon esa forsiydir. Mazkurdan ma'lum bo'ladiki, arabiy so'zning antonimi sifatida forsiy leksema qo'llanilgan. *Arziy* va *osmoniy* leksemalaridagi *–iy* qo'shimchasi nisbiy sifat yasovchi qo'shimcha bo'lib, otlardan sifat hosil qiladi [4,485]. O'zbek tiliga bunday nisbiy sifatlarning ko'pi o'zlashgan. Jumladan, shoir yoki yozuvchilarning taxalluslari ifodalanadi: *Navoiy, Lutfiy, Jomiy;* aniq va mavhum otlar oxiriga qo'shilib ulardan nisbiy sifatlar yasaydi: *devoriy, iqtisodiy, ilmiy, ishqiy* va hokazo [1,148].

E.Vohidovning ta'kidlashicha, "Navoiyning so'z boyligi juda beqiyos. Sababi hazrat fors tilini qanchalar mukammal bilsalar - o'z e'tiroflari bo'yicha: "fors alfozin kishi mendin ko'prak bilmaydur" – arab tilini ham shu qadar barkamol egallaganlar va ularni to'la istifoda etganlar. Turkiy tilning esa butun nazokatini, so'zga boyligini "Muhokamat ul-lug'atayn"dagina emas, butun umr, butun ijod jarayonida namoyon qilganlar" [5,14]. Buning isboti sifatida quyidagi baytni misol qilish mumkin:

Nihon lutfung ar bemadoro bo'lub,

Yoshurg'on *soyi* ***oshkoro*** *bo'lub* (Saddi Iskandariy, 53-bet).

Tabdili: *Vujudingga berkitilgan lutf-marhamatning chegarasi yo'q bo'lib, ularni qancha yashirsang shuncha oshkor bo'ladi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 55-bet).

Baytdagi *yoshurg'on* turkiy, *oshkoro* esa forsiy leksemalar bo'lib, qarama-qarshi ma'nolarni anglatmoqda. Bu baytda shoir *oshkoro* so'zining antonimi sifatida forsiy *nihon bo'lmoq* fe'lidan voz kechib, turkiy *yoshurmoq* (yashirmoq) fe'lini qo'llashni afzal bilgan.

Dostonda arabiy va forsiy leksemalar bilan bir qatorda turkiy leksemalar ham bir-biriga zid ma'nolarni ifodalashda faol qo'llanilgan. Masalan:

Ne ***kun*** *orazidin bor erdi nishon,*

Ne ***tun*** *turrasi anda anbarfishon* (Saddi Iskandariy, 53-bet).

Tabdili: *U vaqtlarda na kunning yuzidan nishon bor edi, na tun kokillari xush hid taratar edi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 3-bet).

Baytdan ko'rinadiki, *kun* yorug'lik ma'nosini, *tun* esa qorong'ulik ma'nosini ifodalovchi turkiy so'zlardir. Bu baytdagi o'xshatishning zamirida kunning go'zal yor orazi (yuzi)dek yorug'ligi, tunning esa turra (qora rangli kokil)dek qorong'uligiga ishora qilingan. Shu bilan birga har ikki so'z bir-biriga zid ma'noli leksemalar hisoblanadi.

XULOSA

Maqolani E.Vohidovning quyidagi fikrlari bilan xulosalashni ma'qul topdik. E.Vohidov shunday yozadi: "Biz Navoiy va Bobur, Fuzuliy va Ogahiy, Mashrab va Muqimiy, Nodira va Furqat singari o'tmish shoirlarimiz ijodini sevamiz, o'rganamiz. Chunki ularning ijodiy merosi bizni ezgulikka undaydi. Ona yurtni, xalqni farzandlik mehri bilan sevishga, ruhiy poklikka, vafo, sadoqatga o'rgatadi" [5,127]. Demak, Navoiy ijodini o'rganish, asarlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdusamatov M. Fors tili. –Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2007. –B.148.
2. Амонов М. Алишер Навоий ғазалларида қўлланилган форсий изофий бирикмалар турлари хусусида. "Замонавий услубшуносликнинг долзарб муаммолари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари.-Фарғона, 2017.-Б.221.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: "Университет", 2009. –Б.283.
4. Шарафиддинов О. Алишер Навоий. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1971.-Б.177.
5. Vohidov E. So'z latofati. –Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. –B.13.

6. Z.Alimova. NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDAGI "GANJ" VA "GAVHAR" ISTILOHLARI BILAN BOG 'LIQ LEKSEMALAR XUSUSIDA. FarDU, Ilmiy xabarlar, 2024, № 3Ilova to'plam. –B. 907-911.

7. Z.Alimova. Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida . FarDU, Ilmiy xabarlar, 2024, № 3. –B.483-487.

8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy.\

9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonimlar.